

## A.QODIRIYNING “BAXTSIZ KUYOV” PYESASIDA MILLIY AN’ANALARNING AKS ETISHI

*Ganiyeva Barchinoy Komiljon qizi*

*FarDU filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi 21.73-guruh talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Abdulla Qodiriyning „Baxtsiz kuyov” pyesasida milliy an’analar talqini, ularning aks etishi hamda ular orqali jamiyat hayoti va inson xarakterini ohib berishdagi o‘rni masalalari tahlil qilingan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** milliylik, millat, milliy qadriyat, umuminsoniylik, milliy ruhiyat.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется интерпретация национальных традиций в пьесе Абдуллы Кадыри „Бахтиз Куев,, , их отражение, а также роль в раскрытии через них общественной жизни и человеческого характера.

**Ключевые слова и фразы:** национальность, нация, национальная ценность, универсальность, национальных дух.

### **ANNOTATION**

The article analyzes the interpretation of national traditions in Abdulla Qadiri’s play „ Bakhtsiz Kuyov”, their reflection, and their role in revealing social life and human character through them.

**Key words and phrases:** nationality, nation, national alue, universality, national spirit.

Har bir yozuvchi badiiy asar yaratar ekan tabiiy ravishda milliylik yuzaga chiqadi. U xoh o‘zbek bo‘lsin, xoh boshqa millat vakili bo‘lsin, muayyan ijtimoiy-siyosiy, geografik, iqtisodiy va milliy muhitda yashab ijod qiladi. Uning tasavvuri, xarakteri va dunyoqarashida ana shu sharoit aks etadi. Shu kabi xususiyatlar ta’sirida shakllangan adib o‘z asarlariga ham huddi shunday jihatlarni olib kiradi. Lekin bularni yozuvchi oldindan rejalashtirmaydi, ya’ni ushbu milliylik xususiyatlari asarning tilida, yozuvchining dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Chunki uning o‘y-fikrlari yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zi yashayotgan muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Xusan, V.G. Belinskiy milliylik haqida „ Yozuvchining xizmati emas, balki ijodning shoir tomonidan uncha zo‘r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartidir. Shuning uchun ham asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa, u shunchalar milliydir, kam va ulug‘ san’atkorni milliyligi uchun maqtash ulug‘ astronomni o‘z hisob- kitoblaridagi karra jadvalida atalmaganligi uchun maqtashday gap... Milliylik shoirni ulug‘ qilmaydi ,

balki buyuk talant shoirni milliy qiladi... Agarda asar badiiy bo'lsa u o'z-o'zidan milliy bo'ladi”, degan fikrlarni ilgari suradi.

Abdulla Qodiriy ijodidagi „Baxtsiz kuyov” pyesasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, milliylik va umuminsoniylik g'oyalari yetakchilik qiladi. Asar boshlanishidagi tasvirlarning o'zidanoq voqealar o'zbek millatiga xonadonda kechayotgani seziladi.

„Mehmonxona, o'ngda kiradurgan eshik, so'da bir teraza, qozuqlarda chopon, salla, belbog‘ va shunga o'xshash nimarsalar, mehmonxonaning ostiga namat solingan, Solih kichikroq ko'rpacha ustida oldida dasturxonga non, bit choynak choy qo'yub, nondan yeb, choydan ichib o'lturar, bir ozdan so'ng Abdurahim kirar”.

Abdulla Qodiriy xonani tasvirlar ekan, uyning ham xalqimiz qurilish an'analariga mos tarzda qurilganligini tasvirlaydi. Shuningdek, xonada qoziq borligi va unda salla, chopon, belbog‘ kabi narsalarning ilinganligi haqidagi tasvir ham bejiz keltirilmagan. Negaki mana shu kabi narsalar o'zbek xalqining qadim-qadimdan shug'ullanib kelgan dehqonchilik faoliyati bilan bog'liq. Asar qahramoni Solih dehqonchilik bilan shug'ullanmasada, boshqa bir odamning hovlisida xizmatkor bo'lib ishlashi, har qanday og'ir ish bo'lsa ham bosh tortmay qilishi kerakligini mana shu belbog‘ orqali anglash mumkin. Salla orqali esa Solihning dindan ham xabardor xudojo'y bola ekanligi anglashiladi.

Voqealar davomida amakisi hovliga kelishi aks etadi. „Assalomu alaykum” deya amakisi bilan muloqot uchun uch-to'rt qadam yurib kelishi ham milliy urf-odatessimiz, o'zbekligimizni anglatuvchi bir xislatdir. Amakisi bilan salom-alik qilib hol-ahvol so'rashib bo'lgandan so'ng, „Qani amaki, ko'rpachaga o'lturing!” deya iltifot qilishi, ham kirib kelgan kishiga hurmatni, ham milliy an'analarimizdan biri bo'lgan mehmondo'stlikni ifodalagan.

Shuningdek,

„Fayziboyni o'zing yaxshi bilasan, dasturxonlik, obro'lik, ham qizig'a ko'b mol qiladurg'on odamdur. Endi menga, xo'b, bo'ladi deb javob bersang, ertaga mahalladan ellikboshi va domla-imomni olub, Fayziboynikig'a borub, fotiha ham, olug'-solug'larni gaplashib, birato'lasiga to'y bo'ladurg'on qilub kelaman, qani, nima javob berasan.”

Keltirilgan ushbu parchada o'zbekchilikka xos yana bir milliy an'anmiz bo'lgan sovchilik haqida so'z bormoqda. Aslida sovchilikka Yoshi kattaroq ayollar, kuyov bo'ladigan yigitning onasi bilan uning yaqinlari boradi. Lekin Solihning ota-onasi yo'qligi bois amakisi o'zi bu vazifani ado etadi. Urf-odatlarga ko'ra mahalla ellikboshisi va domla-imomini ham birga boshlab borishini aytib o'tadi.

Kutilmaganda amakisidan bunday gaplarni eshitgan Solihning yerga qarab , sukul qilishi ham milliylikning bir namunasi sifatida talqin etiladi. Chunki aynan mana shu xususiyatlari bilan Solih boshqa millat vakillaridan ajralib turishi ham xalqimiz milliy mentalitetiga xos hisoblanadi.

Abdurahimning uylantirmoqchi bo‘lgan fikrlari garchi unga to‘g‘ri kelmaganini, hali u oila qurish uchun sharoiti yaxshi emasligini bilsa-da , amakisini ota o‘rnida ota ko‘rib uning gaplariga rozi bo‘ladi.

„Xayr qarzdor bo‘lub qolamanda, o‘zingiz bilsiz amaki , sazangiz o‘lmasun? Otam o‘rnig‘a otamsiz, nima qilsangiz ixtiyor o‘zingizda.”

Biz bilamizki, xalqimizda otaning so‘zi , albatta, muhim sanaladi. Ularning qarorlari barcha oila a’zolari uchun birdek ahamiyatli. Bu an’ana qadim tarixda urug‘-qabilasidagi patriarxat davridan boshlab ,ya’ni jamoada otalar yetakchilik qilgan davrdan bizgacga yetib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abdurahmon ham otasining o‘rnida uning boshini silagani uchun unga ham otasiday hurmat ko‘rsatishining guvohi bo‘lamiz.

Fikrimizni xulosalaydigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning „Baxtsiz kuyov pyesasi o‘zida milliy an’ana va qadriyatlarimizni aks ettirgan va asardagi milliy xususiyatlar orqali asar qahramonlarining ham xarakterlari, ularning qanday xulq-atvor egalari ekanliklari ochib berilgan. Mana shu oddiy suhbat chog‘ida kattalar bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi , ularning fikri qanday bo‘lishidan qat’iy nazar hurmat qilish kerakligi o‘zbek millati vakili ekanimizni ko‘rsatib bera olgan.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
2. Qayumov A. Milliy xarakter va badiiy mahorat nomli monografiya. – Farg‘ona, 2020.